



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI DIREKTORINING BUYRUG‘I

20²⁵ y. " 04 " iyun

N^o 01-10/109

Yoshlar ishlari agentligi direktorining 2025-yil 18-fevraldagi 01-10/26-sonli buyrug‘iga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar tadbirkorligini hamda ularning bandligini ta‘minlashga qaratilgan biznes loyihalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 14-fevraldagi PQ–60-son Qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda – Jamg‘arma) faoliyatini samarali va tizimli tashkil etish maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. Agentlik direktori o‘rinbosari F.Ablayarov va Jamg‘arma ijrochi direktori Sh.Omonovning bildirishnomasida keltirilgan takliflar ma‘qullansin.

2. Yoshlar ishlari agentligi direktorining 2025-yil 18-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg‘armasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 01-10/26-sonli buyrug‘ining 2-ilovasi yangi tahriri ushbu buyruqning ilovasiga muvofiq tasdiqlansin.

3. Jamg‘arma ijrochi direktori (Sh.Omonov)ga:

bir hafta muddatda Jamg‘arma tashkiliy tuzilmasiga ushbu buyruq bilan kiritilayotgan o‘zgarishlarni inobatga olgan holda shtatlar jadvalini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga kiritish;

bir hafta muddatda Jamg‘arma xodimlari har tomonlama samarali faoliyat yuritishi uchun barcha zaruriy shart-sharoitlar (xona, ish stoli, kompyuter jamlanmasi, printer va boshqa) bilan ta‘minlash;

besh ish kun muddatda Jamg‘armaning yangi tasdiqlangan tashkiliy tuzilmasiga muvofiq xodimlarning mehnat shartnomasiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish choralarini ko‘rish;

o‘n besh ish kun muddatda Jamg‘arma tashkiliy tuzilmasiga muvofiq, xodimlarning lavozim yo‘riqnomalarini tasdiqlash vazifalari yuklatilsin.


4. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish Agentlik direktori o'rinbosari F.Ablayarov zimmasiga yuklansin.

Direktor



A.Sa'dullayev

**Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish
davlat maqsadli jamg'armasi davlat muassasasining
TUZILMASI**



Boshqaruv xodimlari soni – 12 nafar.

Xizmat ko'rsatuvchi va texnik xodimlar soni o'rnatilgan me'yorlarga muvofiq belgilanadi.